NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.B.22.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SINDAROV ABDUMO‘MIN O‘ROLBEK O‘G‘LI

NUROTA FITOGEOGRAFIK OKRUGIDA ASTERACEAE OILASI TURLARINING SISTEMATIKASI VA MOLEKULYAR-GENETIK TAHLILI

03.00.05 –BOTANIKA

BIOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

UO‘K: 582.998.1:581.5(575.144)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sindorov Abdumo‘min O‘rolbek o‘g‘li
Nurota fitogeografik okrugida asteraceae oilasi turlarining sistematikasi va molekulyar-genetik tahlili …….....3

Sindorov Abdumo‘min O‘rolbek o‘g‘li
Систематический и молекулярно-генетический анализ видов семейства Астровых в Нуротском фитогеографическом районе. 24

Sindorov Abdumo‘min O‘rolbek o‘g‘li
Systematics and molecular genetic analysis of species of the Asteraceae family in the Nurota phytogeographic district 44

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 48

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12. B.22.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SINDAROV ABDUMO‘MIN O‘ROLBEK O‘G‘LI

NUROTA FITOGEOGRAFIK OKRUGIDA ASTERACEAE OILASI TURLARINING SISTEMATIKASI VA MOLEKULYAR-GENETIK TAHLILI

03.00.05 –BOTANIKA

BIOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/B1694 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Dehqonov Davron Burxonovich**
biologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: ……Turginov Orzimat Turdimatovich
biologiya fanlari doktori, dotsent
Esanov Husniddin Qurbonovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: ..... Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12. B.22.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «____» _____soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Bobur shox ko‘chasi, 161-uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Bobur shox ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «____» _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «_____» _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi)

A.E.Zaynabidinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d.

X.R.Xoshimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, biologiya fanlari bo‘yicha PhD.dotsent

G‘.R.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida biologik xilma-xillikni saqlash, o‘simlik genetik resurslarini o‘rganish va ulardan oqilona foydalanish bugungi kunning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Asteraceae (Qoqio‘tdoshlar) oilasi dunyo florasidagi eng yirik va keng tarqalgan o‘simlik oilalaridan biri bo‘lib, 30 mingdan ortiq tur va 1700 dan ziyod turkumni o‘z ichiga oladi (POWO, 2026). Ushbu oila vakillari turli iqlim sharoitlariga moslashgan bo‘lib, tabiiy ekotizimlarda muhim ekologik vazifani bajaradi. Shuningdek, ular dorivor, oziq-ovqat, yem-xashak, efir moyli va dekorativ ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda molekulyar biologiya va genomika sohasidagi yutuqlar, xususan, xloroplast genomlari asosida filogenetik tahlillarni amalga oshirish imkoniyati Asteraceae oilasi turlarining evolyutsion kelib chiqishi, sistematik o‘rni va genetik yaqinligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyo o‘zining murakkab orografik tuzilishi, keskin kontinental iqlimi va yuqori endemizm darajasi bilan ajralib turadigan muhim floristik mintaqalardan hisoblanadi. Mazkur hudud florasida Asteraceae oilasi taksonomik xilma-xilligi va ekologik moslashuvchanligi bilan alohida o‘rin egallaydi. Jahonda ushbu oila vakillarining sistematik o‘rnini aniqlashtirish, filogenetik munosabatlarini baholash hamda abiotik stresslarga moslashuvining molekulyar asoslarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, yadro DNKsining ITS markerlari va xloroplast genomlari asosida molekulyar-filogenetik tahlillarni amalga oshirish, turlarning genetik yaqinligini aniqlash hamda ekologik omillar bilan filogenetik xilma-xillik o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash dolzarb ilmiy vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda o‘simliklar biologik xilma-xilligini saqlash, endem va kamyob turlarni muhofaza qilish, flora tarkibini zamonaviy taksonomik va molekulyar-genetik usullar asosida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasining tur tarkibi, sistematik tuzilishi, geografik tarqalishi va filogenetik xilma-xilligini kompleks baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, oilaning ayrim endem va kamyob vakillari xloroplast genomlarini tadqiq etish, molekulyar markerlar yordamida ularning taksonomik o‘rnini aniqlashtirish, abiotik stresslarga javob reaksiyalarini o‘rganish hamda filogenetik xilma-xillikning fazoviy qonuniyatlari asosida muhofaza ustuvorliklarini belgilash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi O‘RQ-409-son Qonuni bilan yangi tahrirda bayon etilgan «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son [1] «2019–2028-yillar davrida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son «2019–2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son «2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. “Yer haqidagi fanlar” va V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, botanika, genetika” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Nurota botanik-geografik okrugi endem o‘simliklarining taksonomik tarkibi, ekologik holati, filogenetik xilma-xilligi, bioklimatik modellashtirilishi va muhofaza strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Chinese Academy of Sciences tarkibidagi Kunming Institute of Botany va Xinjiang Institute of Ecology and Geography (Xitoy), Zhejiang University (Xitoy), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), University of Pisa (Italiya), Chungbuk National University (Janubiy Koreya), Abant İzzet Baysal University (Turkiya), Bu-Ali Sina University hamda Research Center for Plant Sciences (Eron), Rossiya Fanlar Akademiyasining botanika yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot institutlari, Botanika va fitointroduksiya instituti (Qozog‘iston), Biologiya instituti (Qirg‘iziston) hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutida olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganligi darajasi. Turli yirik siyosiy-ma’muriy va biogeografik hududlari florasining kompleks tahlili va floristik konspektlarini tuzishga bag‘ishlangan tadqiqotlar xorijlik olimlar F. Conti et al (2005), D. Podlech (2012), C.-S. Chang et al. (2014); endem turlarning tarqalishi bo‘yicha tadqiqotlar L. Peruzzi & al. (2014), F. Memariani et al. (2016). MDH mamlakatlarida batafsil floristik ro‘yxatlar A.L. Taxtaxajyan (2003-2012), N.N. Portenier (2012) tomonidan tuzilgan, Markaziy Osiyoda bunday tadqiqotlarga misol sifatida R.V. Kamelin (1990), G.A. Lazkov, B.A. Sultanova (2014), N.M.Safarov (2017) va boshqalarning ilmiy asarlarini keltirish mumkin. O‘zbekistonda bu kabi tadqiqotlar K.Sh. Tojibaev (2010), F.O. Xasanov, A.S. Esonqulov, M.B. Tirkasheva (2013), A.R. Batoshov (2016), O.T. Turginov (2017), D.E.Azimova (2018) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Nurota tizmasi florasi O‘zbekistonning tog‘li hududlari orasida nisbatan to‘liq o‘rganilgan floristik majmualardan biri hisoblanadi. To‘plangan materiallar hajmining ortib borishi natijasida mintaqada qayd etilgan turlar tarkibi P.Q. Zakirov (1969, 1971) tomonidan tuzilgan dastlabki konspektlarda keltirilgan. Keyinchalik, P. Zokirov keltirgan 679–686 tur R.V. Kamelin (1990) baholashiga ko‘ra 1172 turgacha ortgan. Keyingi tadqiqotlar hududning ayrim qismlari, xususan, Nurota davlat qo‘riqxonasi florasi tarkibini sezilarli darajada

aniqlashtirish imkonini berdi (Beshko, 2000, 2011, 2017–2025). Nurota tizmasi va unga tutash hududlar o‘simliklar xilma-xilligini 150 yildan ortiq davr mobaynida o‘rganish natijalarining eng to‘liq jamlanmasi N.Yu. Beshko (2026) tomonidan tayyorlangan Nurota tizmasi flora konspektida aks ettirilgan bo‘lib, unda kamida 1320 turdagi yuksak o‘simliklar keltirilgan.

TASH fondida esa 8000 ga yaqin tadqiqot hududi va unga chegaradosh hududlardan yig‘ib olingan gerbariy namunalari mavjud. Biroq, mavjud ma’lumotlar va tadqiqotlar ekotizimlar barqarorligini baholashda muhim bo‘lgan zamonaviy ekologik-monitoring yondashuvlari hamda molekulyar-ekologik metodlar asosida yetarli darajada o‘rganilmagani sababli, hududdagi flora turlarining haqiqiy tarkibi, ularning ekologik holati va populyatsion barqarorligi to‘liq aniqlanmagan. Shu bois, Nurota fitogeografik okrugida asteraceae oilasi turlarining sistematikasi va molekulyar-genetik tahlilini ishlab chiqish hamda molekulyar va geobog‘langan ma’lumotlarning yetishmasligi mazkur tadqiqotni dolzarb qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbekistonda biologik xilma-xillikni saqlab qolishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusi, Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti tomonidan amalga oshirilayotgan “Raqamli tabiat: Markaziy O‘zbekiston florasi uchun raqamli platformani rivojlantirish” (2025–2029) davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonning Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasi turlarining xilma-xilligini, ularning hayotiy shakllari, tarqalishi, xo‘jalik ahamiyati hamda molekulyar-genetik xususiyatlarini kompleks o‘rganish va ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasi turlarining boyligi va sistematik tarkibini aniqlash.

Asteraceae oilasi turlarining hayotiy shakllari va vertikal tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish.

Asteraceae oilasiga mansub turlarning xo‘jalik ahamiyatini va “Qizil kitob”ga kiritilgan turlar tarkibini tahlil qilish.

Cousinia botschantzevii, *Scorzonera gageoides* va *Gelasia circumflexa* kabi muhim turlarning xloroplast genomlarini tahlil qilish orqali ularning molekulyar taksonomik o‘rnini aniqlash.

Asteraceae oilasiga mansub ayrim turlarda abiotik stresslarga (qurg‘oqchilik, sho‘rlanish, sovuq va og‘ir metall) chidamlilikni molekulyar markerlar yordamida baholash, stressga javob beruvchi genlarni aniqlash va ularning ekologik ahamiyatini ilmiy asoslash.

Tadqiqot hududida Asteraceae oilasi turlarining filogenetik xilma-xilligiga ta’sir etuvchi ekologik va topografik omillarni aniqlash hamda ularning filogenetik tuzilishga ta’sir darajasini baholash.

Tadqiqotning obyekti. Nurota fitogeografik okrugida tarqalgan Asteraceae Bercht. & J.Presl oilasiga mansub o‘simlik turlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Asteraceae oilasi turlarining taksonomik tarkibi, morfologik va ekologik xususiyatlari, geografik tarqalishi, molekulyar-genetik va filogenetik xilma-xilligi hamda abiotik stresslarga javob reaksiyalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda floristik-taksonomik, geobotanik, qiyosiy-morfologik, molekulyar-genetik, filogenetik, bioinformatik va geoinformatsion tahlil usullaridan foydalanilgan. Turlar tarkibi dala kuzatuvlari, gerbariy materiallari va adabiyot manbalari asosida aniqlangan. Molekulyar tadqiqotlarda DNK markerlari, polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR), xloroplast genomlarini sekvenslash va molekulyar-filogenetik tahlil usullari qo‘llanilgan. Turlarning geografik tarqalishi va filogenetik xilma-xilligi GAT hamda statistik tahlil usullari yordamida baholangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasining zamonaviy taksonomik tarkibi aniqlanib, 59 turkumga mansub 184 tur qayd etilgan hamda ITS markerlari asosida 45 turkumga mansub 85 turning Asteroideae, Carduoideae va Cichorioideae oilachalari doirasidagi filogenetik munosabatlari aniqlashtirilgan;

Nurota fitogeografik okrugi endem turi *Cousinia botschantzevii* ning to‘liq xloroplast genomi ilk bor sekvensiyalanib, uning 152 681 juft nukleotiddan iborat tuzilishi, 131 ta gen tarkibi va LSC mintaqasidagi inversiya xususiyati tavsiflangan hamda *ycf1*, *trnE-UUC–rpoB* va *trnL-UAA–trnF-GAA* hududlari istiqbolli molekulyar markerlar sifatida ajratilgan;

Scorzonera gageoides va *Gelasia circumflexa* turlarining to‘liq xloroplast genomlari O‘zbekistondan olingan namunalar asosida sekvensiyalanib, ularning yuqori filogenetik yaqinligi (bootstrap — 100%, genetik masofa — 0,001) aniqlangan hamda *Scorzonera gageoides* turining *Gelasia* turkumiga mansubligini qo‘llab-quvvatlovchi molekulyar-filogenetik dalillar olingan;

Cousinia pseudolanata, *C. lanata*, *Achillea arabica* va *Artemisia diffusa* turlarida abiotik stresslarga javob bilan bog‘liq CAT, GR, NCED1, NCED2, CSP3, POD va RBOH genlariga xos molekulyar markerlar PCR usulida tahlil qilinib, ularning ayrim turlarda amplifikatsiya qilinishi bo‘yicha farqlanishlar aniqlangan hamda stressga moslashuvning genetik asoslarini keyingi tadqiqotlarda baholash uchun molekulyar ma’lumotlar olingan;

Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasining tur (SR), turkum (GR) va filogenetik xilma-xilligi (PD) fazoviy jihatdan notekis taqsimlanganligi aniqlanib, BU189 katagida 44 tur va PD = 7,07 ko‘rsatkichi qayd etilgan. Standartlashtirilgan filogenetik xilma-xillik (SES.PD) tahlili asosida ayrim hududlarda filogenetik klasterlashuv, boshqalarida esa filogenetik tarqoqlik kuzatilishi, shuningdek, SR, GR va PD ko‘rsatkichlarining balandlik hamda yillik yog‘in miqdori bilan musbat, yillik harorat bilan manfiy bog‘liqligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasiga mansub 59 turkum va 184 turning elektron ma’lumotlar bazasi shakllantirilib, ularning taksonomik tarkibi, geografik tarqalishi va ekologik xususiyatlariga oid ma’lumotlardan floristik tadqiqotlar hamda biologik xilma-xillik monitoringida foydalanish imkoniyati yaratilgan. *Cousinia botschantzevii*, *Scorzonera gageoides* va *Gelasia circumflexa*

turlarining xloroplast genomlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar molekulyar sistematika va filogenetik tadqiqotlar uchun ilmiy manba sifatida tavsiya etilgan;

Asteraceae oilasining ayrim turlari uchun istiqbolli molekulyar markerlar va abiotik stresslarga javob bilan bog‘liq genlar bo‘yicha olingan natijalar asosida keyingi molekulyar-genetik tadqiqotlar uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Turlarning filogenetik xilma-xilligi va fazoviy tarqalishiga oid xaritalar asosida biologik xilma-xilligi yuqori hududlar aniqlanib, ularni muhofaza qilish ustuvorliklarini belgilash hamda ekologik monitoringni tashkil etishda foydalanish imkoniyati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy floristik-taksonomik, molekulyar-genetik, filogenetik, bioinformatik va geoinformatsion tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, turlarning taksonomik mansubligi gerbariy materiallari hamda xalqaro ma’lumotlar bazalari asosida qiyosiy tekshirilganligi bilan asoslanadi. Xloroplast genomlari va DNK markerlari asosida olingan natijalarning filogenetik va statistik usullar yordamida tahlil qilinganligi, fazoviy xilma-xillik ko‘rsatkichlarining ekologik omillar bilan bog‘liqligi baholanganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama qilinib, ilmiy nashrlarda e’lon qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasi turlarining sistematikasi, molekulyar-genetik xususiyatlari va geografik tarqalishini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasiga mansub 59 turkum va 184 turning taksonomik tarkibi, geografik tarqalishi, ekologik xususiyatlari hamda kamyob turlarni muhofaza qilishga oid ilmiy natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining navbatdagi nashrini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2026-yil 13-yanvardagi 4/1255-76-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Nurota fitogeografik okrugidagi kamyob va endem o‘simliklarning tarqalishi hamda muhofaza holatiga oid ilmiy ma’lumotlarni to‘ldirish imkoniyati yaratilgan;

Scorzonera gageoides turining to‘liq xloroplast genomi bo‘yicha olingan molekulyar-genetik ma’lumotlar AQSh Milliy biotexnologiya axborot markazining (NCBI) GenBank xalqaro ma’lumotlar bazasiga PX370050 raqami bilan kiritilgan (2025-yil 10-sentabr). Natijada mazkur turning xloroplast genomiga oid ma’lumotlardan xalqaro molekulyar-sistematik va filogenetik tadqiqotlarda foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan 1 tasi Scopus xalqaro ma’lumotlar bazasida indekslangan ilmiy maqola, 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, 3 tasi respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan maqolalar, 5 tasi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallarida, hamda 2 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob,

xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 160 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **Kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy rejalari bilan bog‘liqligi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari yoritib berilgan. Shu bilan birga, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, himoyaga olib chiqilayotgan ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi “Nurota fitogeografik okrugida botanik tadqiqotlarning umumiy tahlili va tadqiqot usullari” deb nomlanadi. Birinchi bobning “Nurota fitogeografik okrugida botanik tadqiqotlarning tahlili” (§1.1) bo‘limida asosan tadqiqot hududining o‘rganilganlik darajasiga bag‘ishlangan. Nurota tizmasining o‘simlik qoplami haqidagi dastlabki ma’lumotlar XIX asr oxirlariga borib taqaladi. *Ilk izlanishlar davri (1892–1925-yillar).* 1892-yilda zoolog D.K. Glazunov tomonidan Qizilqum cho‘li va Zarafshon tizmasiga tutash hududlarda olib borilgan ekspeditsiya davomida Nurota tog‘larining ayrim qismlari – Sintabsoy va Xumsoy hududlaridan cheklangan miqdorda botanika materiallari to‘plangan. Ushbu namunalarning asosiy qismi hozirda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining TASH gerbariyida saqlanmoqda. Tizimli xaritalash va floristik tavsiflash davri (1929–1944-yillar). Mazkur davrda Nurota tizmasi hududida olib borilgan floristik tadqiqotlar ko‘proq kartografik va geobotanik xarakter kasb etgan. 1929–1931-yillar oralig‘ida S.N. Kudyashov tomonidan Xo‘ja-bo‘ytov va Qarachatov tog‘lari (Nurota tizmasiga mansub) batafsil o‘rganilgan. 1931-yilda G.K. Kobranova va A. Arabov tomonidan Forish tumani (tizmaning markaziy qismi) uchun yaylov-botanik xarita tuzilgan. Kompleks floristik tadqiqotlar bosqichi (1950–1975-yillar). 1951-yilda O.E. Kjorning va L.I. Tsvetkova tomonidan Oqtog’ va Baxiltau tizmalari tutashgan hududlarda o‘simliklar yig‘ilgan. 1954–1955-yillarda K.A. Gavselskiy, M.A. Rish va boshqalar tomonidan Samarqand viloyatidagi yaylovlarda o‘simlik materiallari to‘plangan. Floristik baholash (1990–2016-yillar). 1990-yilda Kamelin tomonidan Nurota florasining umumiy bahosi berilgan bo‘lib, Asteraceae oilasi turlar soni bo‘yicha yetakchilardan biri sifatida ko‘rsatilgan . 2000–2011-yillar oralig‘ida Beshko tomonidan Nurota davlat qo‘riqxonasi florasiga oid konspektlar tuzilgan. 2016-yilda Batoshov tomonidan Nurota relikt tog‘lari va Ko‘kcha tog‘i florasi o‘rganilgan. 2017–2025-yillar davomida Beshko tomonidan Nurota davlat qo‘riqxonasi florasining raqamli versiyasi ishlab chiqilgan.

Birinchi bobning “Tadqiqotda qo‘llanilgan material va metodlar” (§1.2) bo‘limida asosan tadqiqotda qo‘llanilgan material va metodlariga bag‘ishlangan.

Mazkur tadqiqotning materiallari sifatida Nurota fitogeografik okrugiga oid gerbariy namunalari (TASH va boshqa fondlar), 1892–2025-yillarda chop etilgan ilmiy adabiyotlar hamda GBIF va iNaturalist kabi onlayn ma’lumotlar bazalaridan olingan kuzatuvlar ishlatildi. Tadqiqot hududi Navoiy, Jizzax va Samarqand viloyatlari chegarasida joylashgan Nurota tizmasi va unga yondosh tog‘ massivlarini qamrab oldi. Tahlil jarayonida adabiyotlar va gerbariy kolleksiyalari o‘rganildi, tur nomlari xalqaro ma’lumotlar bazalari bilan solishtirildi. GBIF va iNaturalist ma’lumotlari GIS dasturlari yordamida qayta ishlanib, kvadrat to‘rlar bo‘yicha taqsimot xaritasi tuzildi, tur boyligi va tarqalish zichligi statistik usullar bilan hisoblandi. Tadqiqot ishlari 2023–2025-yillarda olib borilib, tarixiy va zamonaviy ma’lumotlar integratsiyasi orqali Nurota okrugida Asteraceae oilasi vakillarining tarqalish xususiyatlari tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot *Asteraceae* Bercht. & J.Presl oilasiga mansub turlarining turli abiotik stresslarga nisbatan chidamlilik darajasini molekulyar darajada baholashga qaratilgan bo‘lib, u ilmiy jihatdan muhim, amaliy jihatdan esa istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Cousinia pseudolanata Popov ex Tscherneva, *Cousinia lanata* C.Winkl., *Achillea arabica* Kotschy va *Artemisia diffusa* Krasch. ex Poljakov turlarining abiotik stressga chidamlilik darajasini 12 ta molekulyar marker asosida baholandi.




1-rasm. Stress omillariga javob beruvchi universal markerlar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasi turlarining xilma-xilligi va ahamiyati” deb nomlangan.

Ikkinchi bobning “Nurota fitogeografik hududida Asteraceae oilasi turlar boyligi va sistematik tahlili” (§2.1) bo‘limida asosan turlarni Asteraceae oilasi turlar boyligi va sistematik tahlili bag‘ishlangan.


Taksonomik tahlilarimiz natijasi shuni ko’rsatdiki, Carduoideae oilachasi tur soni bo‘yicha eng boy bo‘lib, 17 ta turkumda 72 ta tur qayd etildi. Eng yirik turkumlar qatorida *Cousinia* (25 tur), *Arctium* (10 tur), *Centaurea* (8 tur) va *Jurinea* (7 tur) ajralib turdi. Shuningdek, ushbu oilacha tarkibida kam tarqalgan turkumlar ham aniqlangan: *Amberboa*, *Chardinia*, *Crupina*, *Picnomon*, *Rhaponticum*, *Silybum*, *Stizolophus* va *Xeranthemum* kabi 8 ta turkum har biri faqat bitta tur bilan ifodalangan.



2-rasm. Nurota fitogeografik okrugidagi Asteraceae oilasining taksonomik tarkibi


Asteraceae oilasining yirik turkumlari (masalan, *Artemisia*, *Cousinia*, *Taraxacum*) ekologik moslashuvchanligi va bioindikatorlik xususiyatlari bilan tanilgan bo‘lib , ularning Nurota tizmasida keng tarqalganligi hududdagi o‘ziga xos fitotsenotik va ekologik jarayonlarni tushunishga imkon beradi.

Ikkinchi bobning “Asteraceae oilasi turlarining hayotiy shakllari va vertikal tarqalishi: Nurota fitogeografik okrugi misolida” (§2.2) bo‘limida hayotiy shakllari va vertikal tarqalishi bag‘ishlangan. Nurota fitogeografik okrugida aniqlangan Asteraceae oilasiga mansub 184 ta o‘simlik taksoni hayotiy shakllariga ko‘ra tasniflandi. Natijalarga ko‘ra, ko‘p yillik o‘simliklar son jihatdan ustunlik qiladi, ulardan keyin bir yillik va ikki yillik turlar; buta va yarimbutalar esa nisbatan kam tarqalgan.



3-rasm. Nurota fitogeografik okrugidagi Asteraceae oilasi turlarining hayotiy shakllari

Umumiy hisobda ko‘p yillik o‘simliklar (78 ta, 42,4%) eng katta guruhni tashkil qiladi. Bu holat Nurota hududining iqlimiy sharoitlariga mos keladi, chunki ko‘p yilliklar qurg‘oqchilik va resurs tanqisligi sharoitida yashovchan bo‘ladi. Bunday turlar odatda yarimcho‘l va tog‘ etaklarida ustunlik qiladi.



4-rasm. Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasi turlarining balandlik bo‘yicha tarqalishi (GBIF va iNaturalist ma’lumotlari asosida)


Balandlik oshgani sari turlar sonining bosqichma-bosqich kamayib borishi aniqlandi va 2000 metrdan yuqori hududlarda faqat ayrim, balandlik sharoitiga moslashgan turlargina uchradi. iNaturalist va GBIF ma’lumotlari asosida tuzilgan gistogramma va zichlik taqsimoti grafigi mazkur oilaga oid turlar balandlik bo‘yicha bir tekis tarqalmaganligini ko‘rsatdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Asteraceae vakillari asosan past va o‘rta balandlik mintaqalarida keng tarqalgan bo‘lib, ularning yuqori balandliklarga moslashuvi nisbatan cheklangan.

Ikkinchi bobning “Nurota fitogeografik hududida tarqalgan Asteraceae oilasiga mansub turlarning xo‘jalik ahamiyati bo‘yicha tahlili” (§2.3) bo‘limida asosan turlarni turlarning xo‘jalik ahamiyati bo‘yicha tahliliga bag‘ishlangan. Nurota fitogeografik hududida aniqlangan Asteraceae oilasiga mansub turlardan 51 tasi dorivor xususiyatga ega bo‘lib xalq tabobatida va farmatsevtikada qo‘llaniladi, 20 tasi efir moyli bo‘lib, parfyumeriya va kosmetika sanoatida ishlatiladi, 31 tasi yem-xashak sifatida chorvachilikda foydali, 47 tasi asal shirali bo‘lib, asalarichilikda ahamiyatli, 12 tasi manzarali tur sifatida bezak bog‘dorchiligida ishlatiladi, 20 tasi kauchukli turlar texnik xom ashyo sifatida, 7 tasi esa zaharli moddalari bilan ajralib turadi, 55 tasi begona o‘t bo‘lib, qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, 71 turining esa xo‘jalikdagi amaliy ahamiyati hozircha aniqlanmagan.

Ikkinchi bobning “Nurota okrugidagi Asteraceae oilasiga mansub O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan turlar konspekti” (§2.4) bo‘limida asosan turlarni Qizil kitobiga kiritilgan turlar konspektiga bag‘ishlangan.

Nurota okrugida Asteraceae oilasining bir qator endemik va kamyob vakillari uchraydi. Ular orasida *Helichrysum nuratavicum, Vicoa krascheninnikovii, Jurinea zakirovii, Lepidolopha nuratavica, Cousinia pseudolanata, Cousinia dshisakensis* hamda *Arctium pallidivirens* kabi turlar mavjud bo‘lib, ayrimlari Nurota davlat qo‘riqxonasida muhofaza qilinadi, ba’zilari esa hali qo‘riqlanmagan holda tabiiy muhitda saqlanib qolmoqda.

Mazkur konspektda Nurota okrugidagi Qizil kitobga kiritilgan Asteraceae vakillarining tarqalishi, ekologik xususiyatlari, gerbariy ma’lumotlari hamda muhofaza holati keltiriladi. Ushbu ma’lumotlar hududning floristik boyligini chuqur o‘rganish, noyob o‘simliklarni muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.




5-rasm. Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasiga mansub Qizil kitob turlarining geografik tarqalishi.

Hududda Asteraceae oilasining O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan noyob va endemik turlari mavjud bo‘lib, ular cheklangan areali va antropogen omillar ta’sirida kamayib bormoqda. Bu esa hududni muhofaza qilish va monitoringni kuchaytirishni talab etadi.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“**Nurota fitogeografik okrugida asteraceae oilasi turlarining molekulyar taksonomiyasi va xloroplast genom tahlili” deb nomlangan.Uchinchi bobning “Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasi turlarining molekulyar taksonomiyasi” (§3.1) bo‘limida turlarining molekulyar taksonomiyasiga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotda Nurota fitogeografik okrugida tarqalgan Asteraceae (Qoqio‘tdoshlar) oilasiga mansub 86 ta tur molekulyar taksonomik o‘rnini aniqlash maqsadida tahlil qilindi.

Ma’lumotlar NCBI GenBank ma’lumotlar bazasidan olindi. Shu bilan birga, Nurota okrugiga xos endem tur, *Cousinia botschantzevii* Juz. ex Tscherneva uchun to‘liq xloroplast genomi ilk bor sekvens qilinib, tahlil qilindi. Olingan natijalar mazkur tur uchun yangi genomik ma’lumotlarni taqdim etadi va uning filogenetik o‘rnini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Molekulyar filogenetik tahlilni amalga oshirish uchun ribosomal DNKning keng qo‘llaniladigan markerlari tanlab olindi. Jumladan, internal transcribed spacer 1 (ITS1, qisman ketma-ketlik), 5.8S ribosomal RNK geni, internal transcribed spacer 2 (ITS2, to‘liq ketma-ketlik) hamda ribosomal RNKning katta subbirlik geni (LSU rDNA) ketma-ketliklari qo‘llanildi. Mazkur markerlar tur darajasida yuqori rezolyutsiyaga ega bo‘lgani uchun Asteraceae oilasining filogenetik munosabatlarini o‘rganishda samarali hisoblanadi. Filogenetik daraxtlarni qurishda tashqi guruh sifatida *Menyanthes trifoliata* L. (Menyanthaceae oilasi) turlardan biri ishlatildi.



6-rasm. Asteraceae oilasi vakillarining ITS ketma-ketliklari asosida Maximum Likelihood (ML) usulida qurilgan filogenetik daraxt.


Uchinchi bobning “Nurota fitogeografik okrugi uchun endemik bo‘lgan Asteraceae oilasiga mansub *Cousinia botschantzevii* turining to‘liq xloroplast genomi sekvensi tahlili va morfologik va molekulyar taksonomik o‘rni” (§3.2) bo‘limida turining to‘liq xloroplast genomi sekvensi tahlili va morfologik va molekulyar taksonomik o‘rniga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqot doirasida Nurota fitogeografik okrugida endemik hisoblangan *Cousinia botschantzevii* turining to‘liq xloroplast (cp) genomi birinchi marta sekvens qilindi. Bundan oldingi tadqiqotlarda Karimov (2025) tomonidan Cousinia turkumiga mansub 7 turning xloroplast genomi tahlil qilingan edi. Olingan cp genom 152 681 bp uzunlikda bo‘lib, odatiy kvadripartit tuzilishga ega: bitta LSC (Large Single Copy) qismi, bitta SSC (Small Single Copy) qismi hamda juft IR (Inverted Repeat) qismlaridan tashkil topgan. Jins doirasida genlarning umumiy tartibi saqlangan bo‘lsa-da, LSC qismi *Cousinia botschantzevii* turida teskari yo‘nalishda joylashganligi kuzatildi



7-rasm. *Cousinia botschantzevii* turining xloroplast genom xaritasi.

Tashqi doira tashqarisida joylashgan genlar soat strelkasi bo‘yicha, ichki doira ichida joylashgan genlar esa soat strelkasiga qarshi yo‘nalishda transkripsiya qilinadi. Genlar funksional guruhlarga ko‘ra rang bilan kodlangan. Ichki doiraning quyuq kulrang qismi GC tarkibini, och kulrang qismi esa AT tarkibini ifodalaydi. Eng ichki doira xloroplast genomining to‘rt bo‘lakli tuzilishini ko‘rsatadi: ikki teskari takrorlar (IRa va IRb), yirik yagona nusxa (LSC) va kichik yagona nusxa (SSC) mintaqalari.

Uchinchi bobning “*Scorzonera gageoides* va *Gelasia circumflexa* turlarining to‘liq xloroplast genomlari hamda ularning taksonomik ahamiyati” (§3.3) bo‘limida turlarining to‘liq xloroplast genomlari hamda ularning taksonomik ahamiyatiga bag‘ishlangan.Ushbu tadqiqotda *S. gageoides* va *G. circumflexa* ning to‘liq xloroplast genomlari yig‘ildi va tahlil qilindi. Har ikkisi ham angiospermlarga xos bo‘lgan to‘rt qismli tuzilishga ega bo‘lib, katta yagona nusxa (LSC), kichik yagona nusxa (SSC) va ikki teskari takror (IR) hududlaridan iborat edi (8-rasm). *S. gageoides* ning genomi 152 892 juft asoslidan iborat bo‘lsa, *G. circumflexa* genomi biroz katta — 152 917 juft asosdan tashkil topgan. *S. gageoides* genomida LSC 84 090 bp, SSC 18 718 bp va IR 25 042 bpni tashkil etdi. *G. circumflexa* genomida esa mos ravishda 84 101 bp, 18 734 bp va 25 041 bp bo‘ldi.




8-rasm. To‘liq xloroplast genom ketma-ketliklari asosida qurilgan Maximum Likelihood (ML) filogenetik daraxt

Uchinchi bobning “*Asteraceae* oilasining ayrim turlarida abiotik stresslarga chidamlilikning ekologik va molekulyar asoslari” (§3.4) bo‘limida turlarning abiotik stresslarga chidamlilikning ekologik va molekulyar asoslari bag‘ishlangan. Ushbu oilaga mansub *Cousinia pseudolanata* Popov ex Tschern., *Cousinia lanata* C.Winkl., *Achillea arabica* L. hamda *Artemisia diffusa* kabi turlar Markaziy Osiyoning qurg‘oqchil, sho‘rxok va tog‘li hududlarida uchraydi hamda murakkab ekologik omillarga moslashganligi bilan tavsiflanadi. *Cousinia pseudolanata* o‘simligida turli abiotik stress omillariga (qurg‘oqchilik, sho‘rlanish, sovuq va og‘ir metall) javob reaksiyalarida ishtirok etuvchi 12 ta stressga chidamli genlarning mavjudligi va ekspressiyasi polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR) orqali o‘rganildi. PCR tahlillari natijasida olingan gel elektroforegrammalar genlarning ekspressiya darajasini baholash hamda ularning ifodalanish xususiyatlarini

aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan 1–7-genlar, ya’ni CSP3, CYP707A, GST, PYL4, BCH, NCED1 va NCED2 genlari sovuq, qurg‘oqchilik hamda sho‘rlanish stresslariga chidamlilik bilan bog‘liq bo‘lishiga qaramasdan, gel elektroforezi natijalarida ushbu genlarga mos aniq PCR amplifikatsiya mahsulotlari qayd etilmadi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “Nurota Fitogeografik okrugida Asteraceae oilasi turkum darajasida filogenetik xilma-xilligi va unga ta’sir etuvchi ekologik omillar” deb nomlangan. To‘rtinchi bobning “Turkumlar darajasidagi filogenetik xilma-xillik (Phylogenetic Diversity - PD) ko‘rsatkichlarining fazoviy taqsimoti” (§4.1) bo‘limida filogenetik xilma-xillik (Phylogenetic Diversity - PD) ko‘rsatkichlarining fazoviy taqsimotiga bag‘ishlangan. PD ma’lum jamoada uchraydigan turlarni bog‘lovchi filogenetik daraxtning umumiy shox uzunligini ifodalaydi va biologik xilma-xillikning evolyutsion komponentini tavsiflaydi. Ushbu yondashuv nafaqat turlar sonini, balki ularning evolyutsion tarixini ham hisobga olishi bilan muhimdir. SES.PD ko‘rsatkichi esa kuzatilgan PD qiymatini tasodifiy modellarga nisbatan standartlashtirilgan holda baholab, filogenetik klasterlashuv yoki filogenetik tarqoqlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Musbat SES.PD qiymatlari filogenetik jihatdan uzoq qarindosh turlar ustunligini (overdispersion), manfiy qiymatlar esa yaqin qarindosh turlarning ustunligini (clustering) ko‘rsatadi.




9-rasm. Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasi turlarining tur boyligi (SR), turkum boyligi (GR), filogenetik xilma-xillik (PD) va standartlashtirilgan filogenetik xilma-xillik (SES.PD) ko‘rsatkichlarining fazoviy taqsimlanishi.

Olingan natijalar Nurota hududidagi Asteraceae florasi yuqori darajadagi fazoviy heterogenlik bilan tavsiflanishini ko‘rsatdi. Ayrim hududiy kataklar tur boyligi, turkum boyligi va filogenetik xilma-xillikning muhim markazlari sifatida ajralib turdi. Shu bilan birga, SES.PD tahlillari hududda ekologik filtratsiya va evolyutsion diversifikatsiya jarayonlari bir vaqtda shakllanayotganligini tasdiqladi. Bu holat Nurota fitogeografik okrugi Asteraceae florasining nafaqat floristik, balki evolyutsion nuqtai nazardan ham murakkab va muhim biologik tizim ekanligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi bobning “Asteraceae oilasi turlarining filogenetik tuzilishiga edafik va iqlim omillarining ta’siri” (§4.2) bo‘limida filogenetik tuzilishiga edafik va iqlim omillarining ta’siri bag‘ishlangan. Nurota fitogeografik okrugida

Asteraceae oilasi turlarining tur boyligi (SR), turkum boyligi (GR), filogenetik xilma-xillik (PD) hamda standartlashtirilgan filogenetik xilma-xillik (SES.PD) ko‘rsatkichlarining balandlik, yillik harorat va yillik yog‘in miqdori bilan bog‘liqligi tahlil qilindi. Olingan natijalar ekologik omillar hududdagi biologik va evolyutsion xilma-xillikning shakllanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi.



10-rasm. Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasi turlarining tur boyligi (SR), turkum boyligi (GR), filogenetik xilma-xillik (PD) va standartlashtirilgan filogenetik xilma-xillik (SES.PD) ko‘rsatkichlarining balandlik, yillik harorat va yillik yog‘in miqdori bilan bog‘liqligi.

Tahlillar natijasida balandlik gradienti ortishi bilan tur boyligi (SR) ko‘rsatkichining oshishi kuzatildi. Past balandlik hududlarida turlar soni nisbatan kam bo‘lgan bo‘lsa, o‘rta va yuqori balandlik mintaqalarida Asteraceae oilasi turlarining sezilarli ko‘payishi qayd etildi. Ayniqsa, 1000–1700 m oralig‘idagi hududlarda SR qiymatlarining yuqori bo‘lishi ushbu mintaqalarda ekologik sharoitlarning nisbatan qulayligi va mikroiqlim xilma-xilligi bilan izohlanadi. Past balandlikdagi cho‘l va yarim cho‘l hududlarida esa yuqori harorat va namlik tanqisligi tufayli turlar soni cheklanganligi kuzatildi.

XULOSALAR

1. Nurota fitogeografik okrugi Asteraceae oilasi vakillarining taksonomik, ekologik va xo‘jalik jihatdan yuqori xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi muhim floristik hudud hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida hududda Asteraceae oilasiga mansub 59 turkum va 184 tur aniqlanib, ular orasida *Carduoideae*, *Asteroideae* va *Cichorioideae* oilachalari qayd etildi. Ayniqsa, *Cousinia*, *Artemisia*, *Taraxacum* va *Tragopogon* kabi turkumlarning yuqori tur boyligi hududning evolyutsion va ekologik jihatdan murakkab shakllanganligini ko‘rsatdi. Nurota tizmasida *Arctium pallidivirens, Cousinia botschantzevii, Cousinia pseudolanata, Jurinea zakirovii, Helichrysum nuratavicum* va *Vicoa krascheninnikovii* kabi endemik turlarning mavjudligi hududning Markaziy Osiyodagi muhim endemizm markazlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

2. Hayotiy shakllar va vertikal tarqalish tahlillari ko‘p yillik turlar ustunligini hamda Asteraceae vakillarining asosan past va o‘rta tog‘ mintaqalarida keng tarqalganligini ko‘rsatdi. Hududdagi ekologik gradientlar va mikroiqlim sharoitlari turli hayotiy shakllarning shakllanishi hamda moslashuviga muhim ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, oilaga mansub ko‘plab turlar dorivor, efir moyli, asalbop, yem-xashak, texnik va manzarali ahamiyatga ega ekanligi aniqlanib, ularning bioresurs sifatidagi qiymati yuqori ekanligi tasdiqlandi. Ayrim turlar esa begona o‘t yoki zaharli xususiyatga ega bo‘lib, agroekotizimlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etildi.

3. Nurota fitogeografik okrugida tarqalgan Asteraceae oilasi turlarining ITS markerlari hamda xloroplast genomlari asosida olib borilgan molekulyar taksonomik tahlillar ushbu oilaning yuqori genetik xilma-xilligi va murakkab evolyutsion munosabatlarini yoritib berdi. Filogenetik daraxt natijalari Asteraceae oilasining *Asteroideae*, *Carduoideae* va *Cichorioideae* kenja oilalariga mansub turlarining monofiletik guruhlar hosil qilishini tasdiqladi hamda turkumlararo evolyutsion aloqalarni aniqlashtirdi. Ayniqsa, Nurota okrugi uchun endemik bo‘lgan *Cousinia botschantzevii* turining to‘liq xloroplast genomi ilk bor sekvens qilinib, uning genom tuzilishi, gen tarkibi va filogenetik o‘rni aniqlandi. Nukleotid xilma-xilligi tahlillari *ycf1* hamda ayrim LSC hududlari yuqori polimorfizmga ega ekanligini ko‘rsatib, ularning kelgusidagi molekulyar sistematika va filogenetik tadqiqotlar uchun muhim marker sifatida xizmat qilishi mumkinligini tasdiqladi. Morfologik va molekulyar natijalar birgalikda *Cousinia botschantzevii* ning evolyutsion jihatdan mustaqil va muhim takson ekanligini ko‘rsatib, Asteraceae oilasi bioxilma-xilligini saqlash va taksonomik tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy asos yaratdi.

4. *Scorzonera gageoides* va *Gelasia circumflexa* turlarining to‘liq xloroplast genomlarini sekvensiyalash hamda filogenetik tahlil qilish natijalari ushbu turlarning taksonomik maqomini aniqlashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi. Har ikkala turning xloroplast genomlari tuzilishi, gen tarkibi va GC miqdori jihatidan Asteraceae oilasining boshqa vakillari bilan umumiy o‘xshashlikni namoyon etdi. Filogenetik daraxt va juft-genetik masofa tahlillari *Scorzonera gageoides* ning *Scorzonera* s.str. vakillari bilan emas, balki *Gelasia circumflexa*

bilan yaqin qarindosh ekanligini va *Gelasia* turkumiga mansubligini yuqori ishonchlilik bilan tasdiqladi. Olingan natijalar Scorzonerinae kenja qabilasining taksonomik qayta ko‘rib chiqilishidagi molekulyar dalillarni mustahkamlab, xloroplast genomlari sistematika va evolyutsion tadqiqotlarda muhim marker sifatida xizmat qilishini ko‘rsatdi.

5. Asteraceae oilasining *Cousinia pseudolanata*, *Cousinia lanata*, *Achillea arabica* va *Artemisia diffusa* turlarida olib borilgan molekulyar tahlillar ushbu o‘simliklarning abiotik stress omillariga moslashuvchan genetik mexanizmlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. PCR natijalari asosida CAT, GR, NCED1, NCED2, RBOH, CSP3 va POD genlari kabi stressga javob beruvchi muhim genlarning ayrim turlarda mavjudligi aniqlanib, bu genlar qurg‘oqchilik, sho‘rlanish, sovuq va oksidlovchi stresslarga chidamlilikda muhim rol o‘ynashi tasdiqlandi. Ayniqsa, Cousinia lanata va Achillea arabica turlarida antioksidant himoya tizimi hamda ABA signalizatsiyasi bilan bog‘liq genlarning mavjudligi ushbu turlarning yuqori ekologik moslashuvchanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ayrim genlar bo‘yicha PCR mahsulotlarining aniqlanmaganligi ularning stress-induksiyalangan sharoitlarda faollashishi yoki metodik optimallashtirish zarurligi bilan izohlandi.
Nurota fitogeografik okrugida Asteraceae oilasining turkum darajasidagi filogenetik xilma-xilligi yuqori fazoviy heterogenlik bilan tavsiflandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tur boyligi (SR), turkum boyligi (GR) va filogenetik xilma-xillik (PD) ayrim hududiy kataklarda, xususan BU189, BU190 va BR176 hududlarida maksimal qiymatlarga ega bo‘lib, ushbu hududlar Asteraceae oilasining biologik va evolyutsion xilma-xillik markazlari ekanligi aniqlandi. SES.PD ko‘rsatkichlari esa hududda filogenetik klasterlashuv va filogenetik tarqoqlik jarayonlari bir vaqtda shakllanishini ko‘rsatdi. Bu holat Nurota hududida ekologik filtratsiya, raqobat va evolyutsion diversifikatsiya jarayonlari murakkab tarzda kechayotganligini tasdiqlaydi.

6. Asteraceae oilasi turlarining filogenetik tuzilishiga ekologik omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Balandlik va yog‘in miqdorining ortishi SR, GR hamda PD ko‘rsatkichlarining oshishiga olib kelgan bo‘lsa, yillik haroratning ortishi biologik va filogenetik xilma-xillikning kamayishi bilan xarakterlandi. Yuqori balandlik hududlarida SES.PD qiymatlarining pasayishi ekologik filtratsiya natijasida filogenetik jihatdan yaqin qarindosh turlar ustunligini ko‘rsatdi. Aksincha, yuqori haroratli va qurg‘oqchil hududlarda filogenetik tarqoqlikning kuchayishi turli evolyutsion liniyalarga mansub ekologik moslashgan turlar birgalikda shakllanganligini bildiradi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.B.22.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

Синдоров Абдумомин Уролбек угли

Систематический и молекулярно-генетический анализ видов семейства Asteraceae в Нуротском фитогеографическом районе.

03.00.05 – Ботаника

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Наманган – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2026.1.PhD/B1694

Диссертационная работа выполнена в Наманганском Государственном Университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.namdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Дехканов Даврон Бурхонович**
доктор биологических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Тургинов Орзимат Турдиматович**
Доктор биологических наук, доцент
Эсанов Ҳусниддин Қурбонович
Доктор биологических наук, профессор.

Ведущая организация: **Государственный университет Карши.**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.B.22.05 при Наманганском государственном университете. (Адрес: 160119, г. Наманган, улица Бабуршах, дом. 161. Зал заседаний Наманганского государственного университета. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс (+99869) 228-85-02, e-mail: info@namdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бабуршах, дом. 161. Тел.: (+99869) 228-85-01).

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2026 года.
(реестр протокола рассылки №_____ от «_____» _____ 2026 года)

А.Э.Зайнабиддинов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

Х.Р. Хошимов
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, PhD по биологическим наукам, доцент

Г.Р.Абдуллаев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор биологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (АННОТАЦИЯ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD))

